



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




FARG'ONA VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



2022- yil yanvar-oktabr

**2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra
Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, %da**



Joriy yilning yanvar-oktabr oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 967,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 137,5 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 3,0 % punktga ko'payib, 14,3 %ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-oktabr
oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari**



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 32,7 %i yoki 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 85,8 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 28,4 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 247,3 % oʼsish surʼati) va Dangʼara tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 13,9 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 12,8 m. oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



2022- yil yanvar-oktabr oylaridagi
Fargʼona viloyatida qurilish ishlari

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-oktabr oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,6 %i to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga ko'rsatkichiga nisbatan 3,0 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,4 %ni tashkil etgan holda 4 315,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

66,6
2021- yil
yanvar-oktabr

63,6
2022- yil
yanvar-oktabr



Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Farg'on shahri (1 362,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 109,8 %), Marg'ilon shahri (524,8 mlrd. so'm yoki 120,1 %), Qo'qon shahri (317,2 mlrd. so'm yoki 104,6 %) va Qo'shtepa tumani (210,0 mlrd. so'm yoki 132,5 %) to'g'ri keldi.

2022- yil yanvar-oktabr oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari


Qurilish ishlaringning umumiyl hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 22,1 %ni tashkil etdi yoki 1 496,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 114,8 %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 343,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikkagi tashkilotlar tomonidan esa 6 435,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 5,1 % va 94,9 %ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-oktabr oylaridagi Farg'on'a viloyatida qurilish ishlari

**2022- yil yanvar-oktabr oylarida umumiy
hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**

Bajarilgan qurilish ishlарining katta qismи yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlарining 72,9 %и yoki 4 944,4 mlrd. so'm qurilish ishlари aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 789,2 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlаридаги ulushi 16,0 %ни tashkil etdi.



16,0



Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 2 773,3 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlаридаги ulushi 56,1 %ни tashkil etdi.




Yangi qurilish ishlари hajmida norasmiy sektor hissasi 1 381,9 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 27,9 %ни tashkil etdi.

27,9



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 13,1 %ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga kamayib, 58,1 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'payib, 28,8 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da




2021- yil yanvar-oktabr

2022- yil yanvar-oktabr



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 1,4 % punktga ko'paydi va 13,3 %ni tashkil etdi. Qolgan 86,7 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi.



2022- yil yanvar-oktabr oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel.: 73 241-98-42